SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus son (5-jild)

2025

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5SI10Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ S/10 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Togʻayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G‘aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo‘rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o‘g‘li — yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 10-maxsus son (noyabr, 2025). - 450 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Ismoilov Ubaydulla Mamat oʻgʻli*
SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR
VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI ........ 11-19

*Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna*
OʻZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING OʻRNI ........ 20-24

*Umarov Sardor Yakubovich*
XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA
BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI........ 25-31

*Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich*
AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOGʻLIQ
TOPONIMLAR ........ 32-37

*Olimov Nodirbek Anvarjon oʻgʻli*
QOʻQON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MAʼLUMOTLAR
("TARIXI SHOHRUXIY" ASARI MISOLIDA) ........ 38-41

*Moʻminov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon*
DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI OʻRNI........ 42-45

*Ahmedov Bahodir Ismailovich*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING
TARIXIY BOSQICHLARI ........ 46-55

*Ravshanov Mahmud*
ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI...... 56-59

*Asadova Raʼno Baymanovna*
OʻZBEKISTON VA HINDISTON OʻRTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI
VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI ........ 60-64

*Qurbonova Margʻuba*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI
VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI
(1991–2025 YILLAR TAHLILI) ........ 65-68

*Kamolova Habiba Muhammadiyevna*
SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY
INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI OʻZGARISHLAR ........ 69-74

*Ergashev Umar Kuziyevich*
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI GʻUZOR BEKLIGI AHOLISI
TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) ........ 75-79

*Ergashev Akhror*
THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,
AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE
IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE ........ 80-88

*Qurbonov Abbos Shonazarovich*
SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR ........ 89-93

*Esanova Nilufar*
CHET EL INVESTITSIYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) ........ 94-97

*Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich*
"MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA) ........ 98-105

*Ismatova Zulfizar*
O'ZBEK MILLIY KIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI ........ 106-114

*Abdualimova Durdona Shavkat qizi*
G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI ........ 115-125

*Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna*
YOSHLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI ........ 126-129

*Elboyeva Shaxnoza*
ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI ........ 130-134

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna*
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........ 135-142

*Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li*
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ........ 143-151

*Sharipova Gulchehra Farhod qizi*
IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN ........ 152-157

*Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li*
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR ........ 158-162

*Sharopov Nurmuhammad Bobirovich*
DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDIYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR ........ 163-166

*Ibragimov Nodir Nusriddinovich*
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USLUBLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI ........ 167-174

*Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich*
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH ........ 175-179

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Raupova Ra'no Sohibovna*
GLOBALLASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH ........ 180-184

*Mamayusupov Umidjon Kurbanovich*
JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI ........ 185-189

*Ergashev Ozodbek Shavkatovich*
YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI ........ 190-194

*Alimova Shaxnoza Xamidovna*
NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR ........ 195-205

*Tolipov Baxtiyor*
YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI 206-211

*Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich*
AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI ........ 212-218

*Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna*
RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI ........ 219-225

*Yekubova Mavluda Iskandarovna*
RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK ........ 226-232

*Madraximov Atabek Abduraximovich*
EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI ........ 233-238

*Рахматов Нуриддин Негкадамович*
МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ ........ 239-243

*Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna*
YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLI ICHIMLIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOIY SABAB VA OQIBATLARI ........ 244-247

*Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li*
INSON FALSAFASI ........ 248-252

*Baratova Madina Xasanovna*
KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOIY OMILLAR ........ 253-259

*Ismoilov Maxamadixon Isroilovich*
IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOYILLAR VA IJTIMOIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI ........ 260-269

*Obidov Asliddin Shavkatovich*
COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS ........ 270-274

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Kaniyazova Jupargul Orinbayevna*
THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH.AITMATOV ......................... 275-280

*Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна*
СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА) ......................... 281-285

*Sanaqulova Fayoza*
REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR ......................... 286-289

*Ruzibayeva Aziza Kahramanovna*
THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY ......................... 290-293

*Norqobilova Nigora Uralovna*
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARNING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI ......................... 294-298

*Ahmedova Fayyoza Rashidovna*
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI ......................... 299-306

*Elmuratova Zamira Khodjamuratovna*
SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR ......................... 307-310

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Sultanova Sabohat Alisherovna*
FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION" ......................... 311-317

*Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li*
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR ......................... 318-328

*Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich*
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOIY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ......................... 329-339

*Xushvaqtov O'tkir Temirovich*
VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI ......................... 340-346

*Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova*
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION ......................... 347-353

*Normatova Shirin Abdulnabiyevna*
XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI ......................... 354-362

*Каюмова Асаля Султномуродовна*
ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ:
ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ........ 363-368

*Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi*
KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ... 369-377

*Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o‘g‘li*
VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV ........ 378-392

*Amonov Zavqiddin*
ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI ........ 393-400

*Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich*
YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING
JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI ........ 401-405

*Makhmudjanova Mokhirakhon*
ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY........ 406-411

*Нормуродова Азиза Азимжон кизи*
СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ:
ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ........ 412-418

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Utkirov Nusrat*
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI-
MODULLI YONDASHUVLAR ........ 419-424

*Jamolova Shahlo Qobilovna*
BO‘LAJAK FIZIKA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY
TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI
(“REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O‘ZARO TA’SIR. REAL GAZLAR.
VAN-DER-VAALS TENGLAMASI” MAVZU MISOLIDA) ........ 425-428

*Rasulova Moxidil*
TIBBIYOT TA’LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O‘ZLASHTIRISHDA TALABALAR
BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI ........ 429-438

*Ismailov Oybek Abdurasulovich*
ANESTEZIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL
ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY
TA’LIM BERISH ........ 439-445

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*
BO‘LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI
RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI ........ 446-449

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 10 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 20 October 2025
**Accepted:** 15 November 2025
**Published:** 30 November 2025

*Article / Original Paper*

# LINGUOCULTURAL CONDITIONING OF PRAISE AND CURSE WORDS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

**Norqobilova Nigora Uralovna**
Termiz University of Economics and Service
E-mail: nigora.norqobilova@gmail.com

**Abstract.** This article analyzes of the role and significance of the words of praise and cursing in the Uzbek and English languages in the paremiological system and their linguistic and cultural aspects are analyzed. Accordingly, the role of these units in the worldview and value system of the people is also explained.

**Keywords:** paremiology, applause, cursing, linguistic culture, folklore, culture, linguistics.

# O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG‘ISH SO‘ZLARNING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI

**Norqobilova Nigora Uralovna**
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi olqish va qarg‘ish so‘zlarning paremiologik tizimdagi o‘rni, ahamiyati va ularning lingvomadaniy jihatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ushbu birliklarning xalq dunyoqarashi va qadriyatlar tizimidagi o‘rni ham izohlanadi.

**Kalit so‘zlar:** paremiologiya, olqish, qarg‘ish, lingvomadaniyat, xalq og‘zaki ijodi, madaniyat, tilshunoslik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N48

**Kirish.** Lingvomadaniyat o‘tgan asrning 90-yillarida o‘z rivojlanish yo‘liga kirgan bo‘lib, bugunga kelib zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Lingvokulturologiya til va madaniyat hamda til va xalq mentaliteti, milliy o‘ziga xosligining o‘zaro munosabati va ta’sirini tadqiq etadi [4]. Bu jihatdan u madaniyat hamda til haqidagi fan bilan o’zaro bog’lanadi.

Lingvokulturologiya sohasiga XIX asrda V.Fon Gumboldt o‘zining “Tilning tuzilishi va insoniyat ma’naviy rivojiga ta’siri” nomli asari bilan tamal toshini qo‘ygan bo‘lib, til va millat xususiyatlarining munosabatlari haqida qayd etgan edi [2]. Tadqiqotchi o‘z ilmiy tadqiqotlarida til va madaniyatni chambarchas bog‘liqligi haqida alohida to‘xtalib, ma’lum bir etnosning madaniyati uning tilida namoyon bo‘lmasdan qolmasligini izohlaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Lingvokulturologiyaning tadqiqot yo‘nalishlari keng tarmoqli bo‘lib, ular quyidagicha guruhlanadi:

1. Sinxron lingvokulturologiya. Mazkur yo‘nalishda lingvokulturologiya muayyan xalq; yoki millat tilida nutq jarayonida namoyon bo‘ladigan milliy va madaniy xususiyatlarini o‘rganadi.

2. Diaxron lingvokulturologiya. Bunda til birliklarida saqlanib qolgan qadimiy urf-odat, an’ana, hayot tarziga xos barcha xususiyatlar tadqiq etiladi. Ularning bugungi avlod vakillariga qanchalar tanish ekanligi kuzatiladi. Tilning statistik va dinamik holati qiyoslanadi. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarining shakllanish asoslari oʻrganiladi.

3. Qiyosiy lingvokulturologiya. Bir til oilasiga mansub boʻlgan tillarga xos lisoniy-madaniy xususiyatlar tadqiq qilinadi. Chunonchi, turkiy tillar oilasiga mansub oʻzbek, qozoq, tatar kabilar. Tillarda mavjud lisoniy-madaniy xususiyatlarning integral va differensial jihatlari oʻrganilishi mumkin.

4. Chogʻishtirma lingvokulturologiya. Bunda turli til oilalariga mansub tillarning lingvokulturologik xususiyatlari kuzatiladi. Turli tillardagi matnlarning mazmunan moslik darajasi aniqlanadi, mos keluvchi variantlar belgilanadi.

Lingvokulturologiya yoʻnalishida bajarilgan tadqiqotlarni mavzusi va mazmuniga koʻra guruhlarga ajratib oʻrganish nazariy va amaliy ma’lumotlar tahlilida ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida lingvokulturologiya doirasida yozilgan yuzga yaqin dissertatsiyalar oʻrganildi.

V.A.Maslovaga koʻra, “til, madaniyat, inson va etnos munosabati, ya’ni lingvokulturologiya fanining tilshunoslikning boshqa yoʻnalishlari bilan paradigmatik munosabati, madaniyatning til hamda jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliq jihatlari tahliliga bagʻishlangan” [9]. Shuningdek, u qimmatli manbada fanning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, obyekti, predmeti, til va madaniyatning oʻzaro munosabati, olamning lisoniy manzarasi, stereotip, metafora, timsol, xalq ogʻzaki ijodi namunalarida inson obrazi, ayol va erkakning jamiyatdagi oʻrni, ularning tili va madaniyati, qiyosiy va chogʻishtirma tahlil metodlarining lingvokulturologiyadagi ahamiyati kabi masalalar ham yoritilgan.

N.F.Alefirenko tilga ta’rif berar ekan, uni xalq madaniyati, psixologiyasi, falsafasi va tarixini aks ettiruvchi oynaga oʻxshatadi [5]. Oʻzbekistonlik olima Sh.T.Maxmaraimova “Lingvokulturologiya – tildagi madaniy faktlar va ularning mahsuli boʻlmish lingvomadaniyatni oʻrganuvchi fandir” [1] deb, ta’rif beradi. Tadqiqotchi yana bir ilmiy manbada “frazeologizmlar – millatning olamni anglashdagi oʻziga xos tamoyili, sogʻlom fikri, axloqiy qonuniyatlarining qisqa va loʻnda obrazli ifodasi. Frazeologizmlar – olam milliy manzarasining lavhalaridir [1]” deb qayd etadi.

Yana bir olimamiz D.S.Xudayberganovaning doktorlik dissertatsiyasida oʻzbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Lingvokulturologik yondashuvlarga koʻra, matn muayyan xalqning madaniy qadriyatlarini, milliy-mental fikrlash tarzini namoyon etuvchi lingvomadaniy birlik sifatida oʻrganilgan. Tarkibida oʻxshatishlar, metaforalar, maqol va frazeologik birliklar, nutqiy etiketlar boʻlgan matnlar oʻzida milliy-madaniy qadriyatlarni mujassam etgan lisoniy-madaniy fenomen sifatida qayd etilgan [15]. Ishda pretsedent birliklarning matn yaratilishidagi oʻrni, oʻrganilish tarixiga ahamiyat berilgan.

Bu haqda V.N.Teliya esa tilning paremiologik birliklar tarkibi – oynadir. Unda milliy-madaniy umumiylik o’z aksini topadi, milliy o’zlikni anglash namoyon bo’ladi. Aynan frazeologizmlar til vakillariga olamni idrok qilishga va anglashga undaydi [14] deb qayd etadi. Yuqoridagi sharhlarga asoslangan holda frazeologik tadqiqiga bizning munosabatimiz: Har qanday lingvomadaniy tadqiq negizida milliy tilning xos belgilari e’tiborga olinar ekan, etnos uchun ahamiyatli bo’lgan, madaniy axborotni tashuvchi frazeologizmlarning tadqiqiga keng o’rin beriladi. Chunki, frazeologizmlar millat ruhiyatini eng ko’p va ravshan ifoda etuvchi,

avloddan-avlodga hech bir o’zgarishsiz olib o’tuvchi, milliy til imkonyatlarini eng ko’p namoyon qiluvchi birlikdir.

Frazeolog tilshunos L.I.Royzenzon “frazeologiya insonning til faoliyatidagi oʻzligini ifodalovchi, murakkab va komplikativ voqelikdir” [11] deb ta’rif beradi.

V.N. Teliya esa “tilning frazeologik tarkibi – oynadir. Unda milliy-madaniy umumiylik o’z aksini topadi, milliy oʻzlikni anglash namoyon boʻladi. Aynan frazeologizmlar til vakillariga olamni idrok qilishga va anglashga undaydi [13] deydi. Yana bir ilmiy manbada frazeologiya xalqning kundalik hayoti bilan bogʻliq madaniy qadriyatlarning asrlar davomida an’anaviy tarzda ajdodlardan avlodlarga oʻtib kelayotgan manba hisoblanadi [12]. Yuqorida ham tadqiqotchi tomonidan frazeologik birliklar tilning oynasi deb, e’tirof etilganligi bejizga emas. Biz shuni qoʻshimcha qilmoqchimizki, tilning frazeologik qatlami nafaqat tilning oynasi, balki u tilning qadriyatlarini, urf-odatlarini zamondan-zamonga olib oʻtuvchi tilning moʻjizasidir.

O.V.Balonkina rus va ingliz tillarida “suv” tarkibli frazemalarning lingvokulturologik ma’nosi, O.S.Krasilnikova va I.M.Podgayskayalar qarindosh boʻlmagan tillarda “suv” tarkibli frazemalar semantikasini oʻrgangan [8].

N.A.Kindrya oʻzining tadqiqotida ingliz va oʻzbek tillaridagi zoonim komponentli frazeologik birliklarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilgan. Ishda oʻtmishda shakllanib, hozirda semantik oʻzgarishlarga uchragan zoonim komponentli frazeologik birliklarning lisoniy-madaniy, semantik xususiyatlari oʻrganilgan [7].

**Muhokama va natijalar.** Ingliz olimlarining lingvomadaniy tadqiqotlariga oid qarashlari turli davrlarda rivojlangan va oʻzgarib borgan. Ular til va madaniyat oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni oʻrganish orqali turli nazariyalarni ilgari surganlar. Quyida ushbu sohadagi ba’zi olimlar va ularning asosiy qarashlari keltirilgan:

Edvard Sapirning nazariyasiga koʻra, til faqat aloqa vositasi emas, balki u madaniy qiyofani ham shakllantiradi [2]. Benjamin Lee Whorf esa Sapirning izdoshi boʻlgan unga koʻra til va madaniyat oʻrtasidagi aloqani oʻrganib, “lingvistik nisbiylik” nazariyasini taklif qilgan [4].

Keyingi tadqiqotchi esa Deborah Tannen lingvistik pragmatika va gender lingvistikasi sohasida tadqiqot olib borgan. U til va madaniyatning insonlar oʻrtasidagi muloqotdagi roli, xususan, jinsi va ijtimoiy kontekstga asoslangan til uslublarini oʻrganadi. Uning tadqiqotlari madaniyatning til orqali qanday ifodalanishini koʻrsatadi. U madaniyatning tilda qanday aks etishini va til orqali ijtimoiy hokimiyatni qanday boshqarilishini tahlil qiladi. Uning ishlarida tilning ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan qanday shakllanishi keng yoritilgan [3]. Bu olimlarning qarashlari til va madaniyatni uzviy bogʻliq holda oʻrganish zarurligini koʻrsatadi va bu masala lingvistik va madaniy tadqiqotlar uchun asosiy ilmiy manba hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, lingvokulturologiya til va madaniyatshunoslikning kesishishidan shakllangan fan boʻlib, ma’lum bir xalqning madaniyatini tilida aks etishini tadqiq etuvchi fandir. Frazeologik va paremiologik birliklar esa xalqning madaniyatini, qadriyatini oʻzida aks ettiruvchi tilning koʻzgusidir. Shu boisdan ham paremiologik birliklarni konseptual-lingvomadaniy tahlil etish olqish va qargʻish soʻzlarni milliy-madaniy mohiyatini aniqlashda muhim sanaladi.

Demak, lingvokulturologiya sohasida olqish va qargʻish soʻzlarni alohida ta’kidlash joizki, chunki ular aynan xalqning madaniyatini tili orqali ifoda etuvchi asosiy vositalardan biridir. Misol uchun Olqishlar insonga sogʻlik-salomatlik, uzoq umr, ruhiy xotirjamlik, qut-

baraka, baxt-saodat, yaxshilik, ezgu niyat, sogʻlik tilash maqsadida aytiladi. Ular kishilarning ruhini koʻtarib, yaxshilikka daʼvat etadi.

Xalqimiz orasida toʻy marosimlariga aloqador olqishlarning ajoyib namunalari uchraydi. Ularning mazmunini toʻyning xarakteri belgilab turadi. Beshik toʻylaridan chaqaloq sharafiga, sunnat toʻylarida toʻybolaga, nikoh toʻylarida kelin-kuyovga qarata olqishlar aytiladi. Ularda quyidagi somatizmlarning faolligi kuzatiladi. Bosh somatizmi ishtirokidagi olqishlar: *Boshingiz toshdan boʻlsin, Boshingga baxt qushi qoʻnsin, Boshingizga baxt qushi qoʻngani rost boʻlsin, Boshingga Davlat qushi qoʻnib, Podshoh boʻl*!.

Yana bir misol, *Uying bugʻdoydan toʻlgur, Burning joynamozga tekkur, Kaʼbaga imom boʻlgur* singari ijobiy qargʻish turlaridan koʻproq qoʻllanilsa, maqsadga muvofiq boʻlardi. Sababi, qargʻishlar ilohiy xarakterga egadir. Ular ogʻizdan chiqdimi demak, albatta, amalga oshadi. Xalqimizda qargʻish oʻq u aytildimi, albatta, borib kimgadir tegadi degan fikrlar yurgan. Nafaqat bizda balki boshqa xalq vakillarida ham shunday fikrlar mavjuddir.

Ingliz tilidagi *Pain in the ass*, *You absolute jackass*!, *You head is going to explode!*, *I am going to stick my foot up your ass*, *If you don't get out of my face, I will make you* kabi qargʻish soʻzlarda qoʻllangan leksemalar shu xalqning leksik fondidan kelib chiqib qoʻllanilgan va ushbu leksemalarda ingliz xalqining milliy-madaniy jihatlari aks etganligini tahlillarda kuzatishimiz mumkin.

**Xulosa.** Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki, yuqorida tahlil qilingan har ikki tildagi paremalar aynan shu xalqlar mentaliteti va madaniyatidan kelib chiqqan holda shu tillarning faol leksemalari orqali ifoda etilgan boʻlib, olqish va qargʻish soʻzlarning maʼnolarini ochib berishda aynan ularning lingvomadaniy xususiyatlari eʼtiborga olindi.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi oʻzbek tili. (leksikologiya). Toshkent, "Firdavs-Shoh nashriyoti". 2021. – B.271.
2. Sapir, E. Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Routledge. 2017. – 234 p.
3. Tannen, D.You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. New York: William Morrow and Company. 2020. – 274 p.
4. Whorf, B.L. Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf . Cambridge, MA: MIT Press. 2018. – 434 p.
5. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: Учебное пособие. – Москва: Academia, 2001. – 208 с.
6. Гумбольдт В.Ф. Язык и философия культуры. – Москва: Прогресс, Москва, 1985. – С.370.
7. Киндря Н.А. Английские и русские фразеологизмы с компонентом-зоонимом в свете истории культуры: Дисс.... канд. филол. наук. – Москва, 2005. – 203 с.
8. Красильникова О. С. Подгайская И. М Семантика фразеологических единиц с компонентом «вода» в разноструктурных язках // Материалы Международной научной конференции студентов и молодых ученых (Донецк, 17-20 октября 2017 г.). – Том 4: Филологические науки. Ч. 1: Иностранная филология. – Донецк: Изд-во ДонНУ, 2017. – С.44 – 47.
9. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – Москва: Academia, 2001. – С.54.
10. Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология [матн] ўкув қўлланмаси. – Тошкент Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – Б.23.
11. Ройзензон Л.И. Русская фразеология: Учебное пособие. – Самарканд: 1977. – 122 с.

12. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Школы “Языки русской культуры”, 1996. – С. 241.
13. Телия В.Н.Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – Москва, Наука, 1992. – 143 с.
14. Телия В.Н. Что такое фразеология. – Москва,1966. – С.123.фразеологизмов // Вестник Томского государственного университета. – 2017. – № 423. – С.5-14
15. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.
16. https://uz.wikipedia.org/wiki/Olqish
17. https://en.wikipedia.org/wiki/Olqish

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).